

**“Yashil tashabbuslar” stipendiyasiga nomzodlarni
saralash va g‘oliblarga stipendiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1.Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o‘rinlarda - agentlik) huzuridagi “Yashil tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash” jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda - jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan ajratiladigan “Yashil tashabbuslar” stipendiyasini (keyingi o‘rinlarda - stipendiya) nomzodlarni saralash va ularga stipendiya ajratish tartibini belgilaydi.

2.Stipendiya tanlovi har yili belgilangan tartibda o‘tkaziladi. Tanlovni o‘tkazish haqida e‘lon Yoshlar ishlari agentligining rasmiy veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtiriladi, shuningdek oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlariga rasmiy xatlar orqali xabar beriladi.

3.Stipendiyaga nomzodlarni saralash bo‘yicha tanlov komissiyasining (keyingi o‘rinlarda - tanlov komissiyasi) xulosasiga ko‘ra “Yashil tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratiladi.

4.Ushbu stipendiyani joriy etishdan asosiy maqsad — oliy ta‘lim muassasalarida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, iqlim o‘zgarishi va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olayotgan, 30 yoshdan oshmagan magistratura (2-bosqich) hamda tayanch doktorantura (yakuniy bosqich) izlanuvchilari, shuningdek mustaqil tadqiqotchilar va stajyor-tadqiqotchilarni rag‘batlantirish, ularning ilmiy izlanishlari, innovatsion tashabbuslari va amaliy loyihalarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

5.Tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar stipendiya sohibi (stipendiant) deb e‘tirof etiladi va ular sertifikat bilan taqdirlanadi.

6.Ushbu stipendiya nomdor davlat stipendiyalari bilan bir vaqtda berilmaydi.

7.Stipendiya oluvchilarga har oyda, jami 10 oy davomida to‘lov amalga oshiriladi. Magistratura bosqichi tinglovchilariga bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravari, tayanch doktorantura, mustaqil hamda stajyor-tadqiqotchilarga esa bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida stipendiya to‘lanadi.

8.Ushbu stipendiya tanlovi g‘olibi deb topilgan shaxs tanlovda yana qayta ishtirok etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2-bob. Tanlovda ishtirok etish tartibi

9.Stipendiyaga nomzodlar tomonidan mazkur nizomning 11-bandida belgilangan hujjatlar har yili 20-yanvardan 20-fevralga qadar yashiltashabbus.uz elektron platformasi orqali topshiriladi.

10.Tanlov quyidagi muddatlarga muvofiq o‘tkaziladi:

Hujjatlarni saralash (1-bosqich): **20-fevraldan 15-martga qadar.**

Tanlovning 2-bosqichi (suhbat/loyiha himoyasi): **1-apreldan 5-aprelga qadar.**

G'oliblarni aniqlash va stipendiya berish: **1-maydan g'oliblar aniqlanadi va ularga stipendiya to'lash muddati boshlanadi.**

11. Stipendiyaga nomzodlar quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi hamda belgilangan hujjatlarni elektron shaklda topshirishi lozim.

a) magistratura bosqichi talabalari:

- nomzodning pasport nusxasi, magistrlik guvohnomasi;
- oliy ta'lim muassasasi tavsiyanomasi;
- o'qishdagi o'zlashtirish ko'rsatkichi (GPA) kamida 4.0 yoki undan yuqori bo'lgan reyting daftarchasi ko'chirmasidan nusxa;
- ekologik forumlar, tanlovlar, treninglar yoki grant dasturlarida faol qatnashganligini tasdiqlovchi hujjatlar (sertifikat, tashakkurnoma va foto-lavhalar);
- nomzodning sohaga oid amalga oshirayotgan loyihasi hujjatlari.

b) tayanch doktorantura, mustaqil tadqiqotchi hamda stajyor-tadqiqotchi yo'nalishlari bo'yicha izlanuvchilar:

- nomzodning pasport nusxasi;
- oliy ta'lim muassasasi tavsiyanomasi;
- ilmiy rahbar xulosasi;
- ekologiya sohasida olib borilayotgan tadqiqot ishlariga berilgan taqrizlar;
- nomzod ekologiya, yashil iqtisodiyot, iqlim o'zgarishi yoki qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida kamida ikkita respublika yoki xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda chop etilgan ilmiy maqolalar nusxalarini taqdim etadi. Mazkur maqolalarning Scopus, Google Scholar, Academia.edu yoki ORCID bazalarida mavjudligini tasdiqlovchi havolalar ilova qilinadi.

-tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan loyiha kamida 70 foiz tayyorlik darajasiga ega bo'lishi hamda doktorant tahsil olayotgan ilmiy muassasaning ilmiy kengashi tomonidan rasmiy xulosasi bilan tasdiqlangan hujjatlar taqdim etilishi lozim.

3-bob. Tanlovga taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish.

12. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan hujjatlarni ko'rib chiqish va baholash uchun tanlov komissiyasi sohaga oid vazirlik va idoralar vakillari, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar hamda jamoatchilikda obro'-e'tibor qozongan eko-faollardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

13. Tanlov komissiyasi nomzodlarning hujjatlarini baholash mezonlariga muvofiq baholaydi va nizom talablari asosida saralaydi. Saralangan nomzodlarga 2-bosqich — suhbatda ishtirok etish uchun yo'llanma beriladi. Suhbat jarayonida nomzodlar o'z ekologik loyihasi yoki ilmiy ishlanmasini tanlov komissiyasi oldida taqdim etadilar. Taqdimot uchun 3 daqiqa, savol-javob uchun esa 2 daqiqa vaqt ajratiladi. Taqdimotlar onlayn yoki oflayn tartibda tashkil etilishi mumkin.

Agarda kuchlar teng kelib qolsa tanlov komissiyasining qarori oddiy ovoz yo'li bilan ko'pchilikning ovoziga ko'ra qabul qilinadi va bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi.

5-bob. Nomzodlarni baholash mezonlari.

a) Magistratura bosqichi talabalari:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Taqdim etilgan hujjatlar to'liqligi va rasmiylashtirish sifati	10 ball
2.	Nomzodning semestrlarda fanlardan olgan baholarining o'rtacha miqdoriga ko'ra	20 ball
	agar nomzodning o'rtacha GPA bali – 4,00-4,25 bo'lsa;	10 ball
	agar nomzodning o'rtacha GPA bali – 4,26-4,74 bo'lsa;	15 ball
	agar nomzodning o'rtacha GPA bali – 4,75 va undan yuqori bo'lsa;	20 ball
3.	Nomzodning sohaga oid amalga oshirayotgan loyihasi	30 ball
	Loyiha dolzarbligi va ijtimoiy ahamiyati. Bunda, taqdim etilgan loyiha atrof-muhit muammolarini hal etishga, ekologik muvozanatni saqlashga yoki yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi hamda loyiha natijalari amaliy qo'llanilishi yoki jamiyatda ijobiy o'zgarishi aks etishi lozim.	10 ball
	Innovatsion yondashuv va ilmiy asoslanganlik. Bunda, loyiha yangilik kirituvchi, innovatsion g'oya yoki texnologiyani o'z ichiga olganligi hamda ilmiy izlanishlar, tajribalar yoki statistik ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi lozim.	10 ball
	Barqarorlik va amalga oshirish imkoniyati. Bunda, loyiha uzoq muddatli natijaga ega bo'lishi, moliyaviy va tashkiliy jihatdan amalga oshirilishi mumkinligi asoslab berilishi, hamda loyihaning kutilayotgan natijalari, o'lchanadigan indikatorlari (masalan: chiqindi kamayishi, daraxt ekish soni, suv tejash hajmi va boshqalar) aniq belgilangan bo'lishi lozim.	10 ball
4.	Nomzodning ekologik loyihalardagi ishtiroki yoki shaxsiy tashabbuslari	25 ball
	Nomzod tuman (shahar) hamda hududiy miqyosdagi ekologik tadbirlar, volontyorlik aksiyalari yoki yoshlar o'rtasida atrof-muhitni asrashga qaratilgan ishlarda faol ishtirok etgani uchun.	7 ball
	Nomzod respublika miqyosida o'tkazilgan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi kabi mavzulardagi forumlar, sammitlar, tanlovlar va boshqa dasturlarda faol ishtirok etgani uchun.	8 ball
	Nomzodning xalqaro miqyosda o'tkazilgan tadbirlardagi ishtiroki hamda shaxsiy namuna ko'rsatib, tabiatni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish, yashil energiya, ekologik ta'lim yoki ijtimoiy ekologik aksiyalarni tashkillashtirishdagi tashabbuslari uchun.	10 ball
6.	Umumiy faoliyati	15 ball
	Tavsiyanomalar hamda baholash jadvalida ko'zda tutilmagan boshqa yutuqlari uchun;	10 ball
Jami		100 ball

b) tayanch doktorantura, mustaqil tadqiqotchi hamda stajyor-tadqiqotchi yo‘nalishlari bo‘yicha izlanuvchilar:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Taqdim etilgan hujjatlar to‘liqligi va rasmiylashtirish sifati	10 ball
2.	<i>Ilmiy-ijodiy faoliyat va innovatsion tadqiqot natijalari Scopus, Google Scholar, Academia.edu va ORCID kabi xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazalarida mavjudligi va ekologik tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi;</i>	35 ball
	<i>nomzodning xorijiy ilmiy jurnallardagi maqolalari uchun - ikki va undan ortiq bo‘lsa;</i>	<i>20 ball</i>
	<i>nomzodning mahalliy ilmiy jurnallardagi maqolalari uchun - ikki va undan ortiq bo‘lsa;</i>	<i>15 ball</i>
3.	Nomzodning sohaga oid amalga oshirayotgan loyihasi	30 ball
	Loyiha dolzarbligi va ijtimoiy ahamiyati. <i>Bunda, taqdim etilgan loyiha atrof-muhit muammolarini hal etishga, ekologik muvozanatni saqlashga yoki yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi hamda loyiha natijalari amaliy qo‘llanilishi yoki jamiyatda ijobiy o‘zgarishi aks etishi lozim.</i>	<i>10 ball</i>
	Innovatsion yondashuv va ilmiy asoslanganlik. <i>Bunda, loyiha yangilik kirituvchi, innovatsion g‘oya yoki texnologiyani o‘z ichiga olganligi hamda ilmiy izlanishlar, tajribalar yoki statistik ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi lozim.</i>	<i>10 ball</i>
	Barqarorlik va amalga oshirish imkoniyati. <i>Bunda, loyiha uzoq muddatli natijaga ega bo‘lishi, moliyaviy va tashkiliy jihatdan amalga oshirilishi mumkinligi asoslab berilishi hamda loyihaning kutilayotgan natijalari, o‘lchanadigan indikatorlari (masalan: chiqindi kamayishi, daraxt ekish soni, suv tejash hajmi va boshqalar) aniq belgilangan bo‘lishi lozim.</i>	<i>10 ball</i>
4.	Nomzodning loyihani taqdim etish mahorati va sohaga oid mutaxassislik darajasi.	25 ball
	<i>Nomzodning ilmiy-analitik fikrlashi, tadqiqotni mustaqil olib borish qobiliyati, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash madaniyati, dalillash va xulosa chiqarish ko‘nikmalari hamda ilmiy rahbar yoki kafedra tomonidan berilgan baholovchi tavsifnoma yoki taqrizdagi ijobiy xulosalar inobatga olinadi.</i>	<i>25 ball</i>
Jami		100 ball

14. Mazkur baholash mezonlari asosida eng yuqori ball to‘plagan magistratura bosqichi talabalari orasidan 10 nafargacha, doktorantura bosqichi izlanuvchilari orasidan esa 5 nafargacha nomzod kvota asosida g‘olib etib aniqlanadi. Shuningdek, g‘oliblarning baholash mezonlari bo‘yicha umumiy natijasi 85 balldan kam bo‘lmasligi lozim.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar.

15. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlarda e’lon qilib boriladi.

16. Stipendiat ta’lim olayotgan tashkilotning ichki tartib qoidalarini buzganligi yoki ilmiy faoliyatida sustkashlikka yo‘l qo‘yganligi to‘g‘risidagi taqdimnomasiga ko‘ra, tanlov komissiyasi qarori bilan stipendiya berilishi to‘xtatiladi.

17.Tanlovda qatnashgan nomzodlarning ariza va shikoyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

18.Ekspertlar guruhi tomonidan stipendiat deb topilgan talabalarni rag‘batlantirish Yoshlar ishlari agentligi direktorining buyrug‘iga asosan amalga oshiriladi va pul mablag‘lari ularning nomiga ochilgan bank kartasiga o‘tkazib beriladi.